

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspekti.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'yidinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 41+406

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "HAYOT/O'LIM" KONSEPTUAL OPPOZITSIYASI
VERBALIZATORLARI STRUKTURAL-SEMANTIK MAYDONI****STRUCTURAL-SEMANTIC FIELD OF VERBALIZERS OF THE CONCEPTUAL
OPPOSITION "LIFE/DEATH" IN ENGLISH AND UZBEK****СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ ВЕРБАЛИЗАТОРОВ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ
ОППОЗИЦИИ «ЖИЗНЬ/СМЕРТЬ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****Mo'yidinov Shahboz Ravshan o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti "Ingliz tili amaliy kursi kafedrası" o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv lingvistika sohasi haqida ma'lumot beriladi. Turli tizimli tillar ingliz va o'zbek tillarida "hayot/o'lim" konseptini voqelantiruvchi til birliklari sathlararo qiyoslanadi va ularning maydon tabiati qiyosiy tadqiq qilinadi. Hayot/o'lim konsepti maydonida yotuvchi til birliklari turli adabiyotlardan tahlilga tortilgan misollar orqali ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, uning til birliklari til sathlarida misollar orqali atroflicha tadqiq etiladi va xulosalanadi. Tahlilda ingliz va o'zbek tillarida maqsad konseptining izomorfik va allamorfik jihatlari ochib beriladi.

Abstract

This article provides information about the field of cognitive linguistics, which is one of the important areas of modern linguistics. Language units that realize the concept of "life/death" in English and Uzbek languages of different systems are compared at different levels and their field nature is comparatively studied. Linguistic units in the area of the concept of life/death are considered through examples from different literature. At the same time, its language units are thoroughly explored and summarized through examples at language levels. The analysis reveals isomorphic and allomorphic aspects of the concept of purpose in English and Uzbek languages.

Аннотации

В данной статье представлена информация об области когнитивной лингвистики, которая является одним из важных направлений современной лингвистики. Языковые единицы, реализующие концепт «жизнь/смерть» в английском и узбекском языках разных систем, сопоставляются на разных уровнях и сравнительно изучается их полевая природа. Языковые единицы в области концепта жизнь/смерть рассматриваются на примерах из различной литературы. В то же время его языковые единицы тщательно исследуются и обобщаются на примерах на языковых уровнях. В результате анализа выявляются изоморфные и алломорфные аспекты концепта цели в английском и узбекском языках.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, "hayot/o'lim" konsepti, "hayot" lingvokognitiv maydoni, morfema, leksema, frazeologizm, tekstema, soda gap, qo'shma gap.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт «жизнь/смерть», лингвокогнитивное поле «жизнь», морфема, лексема, фразеологизм, текстма, простое предложение, сложное предложение.

Key words: cognitive linguistics, the concept of "life/death", the linguocognitive field of "life", morpheme, lexeme, phraseologism, textme, simple sentence, compound sentence.

KIRISH

"Kognitiv tilshunoslik ... inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitiv tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. U(kognivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar orqali bo'lgan muloqot matnlari lisoniy tizimlarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi". [42, 27]

Professorlar H.Ne'matov va R.Rasulovlar paradigmalar bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, ular jamiyat a'zolari ongida mavjud va aqliy-lisoniy tahlil orqali aniqlanadi. Shunga ko'ra, turli nutqiy ko'rinishlarda, jadvallarda, tasvirlarda berilgan paradigmalar to'liq va mukammal emas. Balki

TILSHUNOSLIK

shartli nutqiy birikishlardir. Paradigmatik (o'xshashlik) munosabatlar til ziddiyatlarida (oppozitsiyalarda) voqealashadi, "ko'rinadi", deb izohlaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligiga paradigma va maydonning farqlari xususidagi qarash ilk marta professor T.Mirzaqulov tomonidan o'rtaga tashlandi, olim o'zining doktorlik dissertatsiyasida paradigmaning tilning ma'lum bir sathiga tegishli birliklar yig'indisi ekanligini, maydonda esa sathlararo chegaraga chek qo'yilishini alohida ko'rsatgan edi. Uningcha: "Maydon nuqtai nazaridan yondashilganda, u tilning bir necha sath hodisalarini tutashtirib, sathlararo farqqa chek qo'yadi, paradigma esa bir sath doirasida bo'lib, sathlararo chegarani saqlaydi". lingvistik lug'atlarda shunday izohlanadi: "Ma'no (mazmun) umumiyliigi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan leksik birliklar) yig'indisi maydon deb nomlanadi".

O'zbek tilshunosligida til birliklarini onomasilogik nuqtai nazardan o'rganish Sh.Iskandarova, A.Sobirov, G.Ne'matova, H.Hojiyeva, N.Nishonova, F.Safarov, M.Hakimova, D.Voqqosova, B.Qurbonova, M.Ergashova, L.Elmuradova singari bir qator olimlar tomonidan kuzatildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sentensema til birligi sifatida morfema, leksema, sintaksema bilan solishtirilganda mazmun hamda tuzilish jihatdan ham farq qiladi. Misol uchun, hayot bamisoli sahna, o'lim sharobini sipqormoq Sentensemada keyin turuvchi tekstema, eng yirik til birlik hisoblanadi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, tekstema qolgan til birliklariga qaraganda muayyan tushuncha haqida to'liqroq hamda mufassalroq ma'lumot olishga yordam beradi.

Bundan tashqari, paremiologik va frazeologik birliklar ham borki, ular asosan so'z hamda uning ma'no munosabatlariga tayanadi. Misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, Hayot – katta sahna, unda har kim o'z rolini ijro etadi. Hayot – go'zal. Hayot – qisqa. Hayot – bir nafaslik imkon. Yoki O'lim – haq. Dard – mehmon, o'lim – haq. Hayot bilan o'limning orasi – qosh bilan qovoqning o'rtasi. Otning o'limi – itning bayrami.

Xulosa o'rinda shuni qisqacha aytish mumkinki, til birliklarining har biri o'zining tuzilish jihatidan farqli tomonlar hamda vazifalariga egadir. Bularni biz yuqoridagi misollardan ko'rib chiqdik. Ularning ushbu keltirilgan xususiyatlarni yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida ishimizning keyingi boblarida turli tizimli tillardagi "hayot/o'lim" konsepti verbalizatorlarini empirik misollar asosida qiyoslab tahlil qilib chiqamiz.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma qobig'ida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar soni tobora ortib bormokda. Buning boisi shuki, bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda til birliklarining struktural-semantik qurilishi, ularning kundalik muloqotda kommunikativ-pragmatik jihatdan ongli qo'llanishi va eng muhimi - u yoki bu til jamoasi vakillari bo'lmish sotsiuslar muloqotining to'laqonli kechishida, qolaversa, muloqotdek bir murakkab jarayonga daxldor bir qator lingvokognitiv va lingvokulturologik muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar berishda aynan tilda so'zlashuvchi/yozuvchi inson omilining roli beqiyos ekanligi, shuningdek, bu omilga doimo asosiy e'tiborni qaratish natijasida lingvokognitiv tahlillar tobora kuchayib bormoqda.

Shunday ekan, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyekti sanaladigan "konsept" nazariyasi rivojlanib, tobora sayqal topib bormoqda. Shu ma'noda olganda, boshqa konseptlar qatori "hayot/o'lim" konsepti ham o'ziga xos lingvokognitiv asosga va lingvokulturologik tavsif hamda tasnifga ega bo'lgan mental voqelikdir.

Boshqa konseptlar bilan bir qatorda "hayot/o'lim" konseptini ifodalovchi, ya'ni voqealantiruvchi sathlararo til birliklarining har birini empirik misollar asosida ko'rib chiqish u haqda muayyan tasavvur hosil bo'lishiga yordam beradi. Bunda, eng avvalo, har bir til birligining qaysi bo'limda o'rganilishi, ta'rifi, tavsifi va vazifasini aniq belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, til sathlari orasida fonetik sath boshlang'ich, boshqacha aytganda, eng quyi o'rinni egallaydi. Ammo konsept tushunchasi til birliklarining anglatgan mazmun-mohiyati asosida shakllanadi. Fonetik sath birliklari esa bunday imkoniyatga ega emas, ya'ni ma'no-mazmun ifoda etmaydi, balki ma'no farqlashgagina xizmat qiladi. Shu sababli ham biz tahlillarni morfemik sath misolida o'rgana boshlaymiz.

XULOSA

Matn ma'lum bir voqelikning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Misol uchun, o'zbek tilida Esingdami, dunyoga kelgan chog'ingda, hamma shodon edi, sen eding nolon, shunday yashaginki, ketar chog'ingda hamma giryon qolsin, sen bo'lsa shodon. tarzida badiiy qimmatini yuqori bo'lgan matnlar uchraydi. Yuqorida biz turli tizimli tillarda "hayot/o'lim" konseptini ifodalash uchun xizmat qiladigan til birliklarini misollar orqali ko'rib chiqdik. Bundan tashqari ushbu konseptni lingvomadaniy va lingvopragmatik jihatdan ifodalovchi til vositalari ham borki, ular paremiyemalar va paralingvemalar deb ataladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoshimov G'M. Ziyayev. A. "Интенсификация-деинтификация" konseptual semantikasi verbalizatorlarining kognitiv tipologiyasi. Far.Du. Ilmiy xabarlar. 4- 2017.
2. Irisqulov M.T., Tilshunoslikka kirish, Toshkent, O'qituvchi, 1992
3. "Jane Eyre" by Charlotta Brante. Retold by Florence Bell.
4. Jumaniyoz Sharipov, "Xorazm" (roman). www.Ziyouz.com kutubxonasi.
5. Kubryakova Y.S. konsept//Y.S. Kubryakova, V.Z. Demyankov, Y.G. Pankrias, L.G.Luzina
6. "Лингвистический энциклопедический" словарь. М. Советская энциклопедия.1990.380с.
7. Maslova V.A. когнитивная лингвистика.Учебное пособие. Тетрасистема 2008(22с).